

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (2021-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 3852,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 32,5 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sdi.

**2021-yil 1-iyul
holatiga ko'ra doimiy
aholi soni
3852,6 ming kishiga
yetdi.**



**2021-yil boshiga
nisbatan 32,5 ming
kishiga yoki
0,8 % ga o'sgan**



**Tirik tug'ilganlar
soni 43,5 ming
kishi**



**O'lganlar soni
8,7 ming kishi**



**Shahar aholisi
2168,2 ming kishi**



**Nikohlar soni
12,2 ming birlik**




**Qishloq aholi soni
1684,4 ming kishi**



**Ajrimlar soni
2,1 ming birlik**




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 296,0 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 263,2 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 95,9 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 79,8 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa va So'x, Dang'ara tumanlarida 2,3 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida 1,3 % va Beshariq tumanida esa 1,6 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi
(2021-yil 1-iyul holatiga, %da)



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da



Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi
(2021-yil 1-iyul holatiga, %da)






FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 43,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,9 promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilning yanvar-iyun oylarida 21,6 promille bo'lgan).


Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-iyun 1000 aholiga nisbatan, promille)




Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (2021-yil yanvar-iyun oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-iyun)
Yillar



Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 8,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kopayganligi (2020-yilning yanvar-iyun oylarida 4,4 promille bo'lган) kuzatildi.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi So'x tumanida (2,7 promilledan 3,7 promillega), Quva tuman (3,9 promilledan 4,2 promillega), va Farg'ona tumanlarida (4,1 promilledan 4,4 promillega) o'sgan.


**Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni
(yanvar-iyun, kishi)**

	2020 y.	2021 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	8214	8664	105,5
Farg'ona sh.	780	838	107,4
Qo'qon sh.	662	699	105,6
Quvasoy sh.	206	214	103,9
Marg'ilon sh.	569	595	104,6
Oltiariq	440	473	107,5
Qo'shtepa	393	399	101,5
Bog'dod	423	461	109,0
Buvayda	405	424	104,7
Beshariq	498	455	91,4
Quva	500	543	108,6
Uchko'prik	431	524	121,6
Rishton	415	434	104,6
So'x	105	146	139,0
Toshloq	434	413	95,2
O'zbekiston	538	570	105,9
Farg'ona	437	478	109,4
Dang'ara	439	471	107,3
Furqat	311	320	102,9
Yozyovon	228	207	90,8

2021 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,6 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,0 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,4 foizi o'simtalardan, 4,3 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 285 nafarni tashkil etib, ularning 45,3 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 23,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,8 foizi tug'ma anomaliyalardan, 4,6 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 34,8 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming kishiga (2020 yilning yanvar-iyun oylarida 32,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi) (yanvar-iyun) Yillar




Nikoh. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 12,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 2,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-iyun, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- iyun holatiga,1000 aholiga nisbatan, promille)



Aholi migratsiyasi

(2021 yil yanvar – iyun, kishi)



Migratsiya. 2021-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5558 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7817 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosni minus 2259 kishi bo'lib, 2020-yilning o'tgan shu davrida minus 137 kishi bo'lgan.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya saldosining eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus 570 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 533 kishi qayt etildi.



**Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32**